



INNOVATIVE TECHNOLOGIES OF SOCIAL WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abdulaziz Yuldashev
master's student
Fergana state university
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, innovation, educational technology, social work, innovation in education, professional competence, personal excellence, person-centered education, personal well-being, self-development, social ethnic, socio-economic, cultural needs, human and society.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

Abstract: The article discusses the innovations in the mechanisms of continuing education, ie in preschool education, general secondary education, academic lyceum, secondary special vocational education and higher education, higher education. The curricula of subjects taught in further education are based on the best traditions of teaching and educating the individual in innovative technologies of social work, in the development or improvement of the existing mechanism to ensure the sustainable development of the system of educational institutions. A coverage was analyzed. It also provides conclusions and recommendations for achieving personal excellence through the formation of professional competencies in the training and education of future professionals.

TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOYIY ISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Abdulaziz Yuldashev
magistrant
Farg'ona davlat universiteti
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, innovatsiya, ta'lim texnologiyasi, ijtimoiy ish, ta'limda innovatsiya, kasbiy kompetentsiya, shaxsiy barkamollik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsiy farovonlik, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy-ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy,

Annotatsiya: Maqolada innovatsiyalar uzluksiz ta'limning mexanizmlarini ya'ni ta'limning maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi va oliy ta'limda, oliy ta'limdan keyingi ta'limda o'qitilayotgan fanlar o'quv

madaniy extiyojlar, inson va jamiyat.

dasturlari, ta'lim muassasalar tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqish yoki takomillashtirishda, ijtimoiy ishning innovatsion texnologiyalarida shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'alarini to'la qamrab olishi taxlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarining o'qitish va tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish orqali shaxsiy barkamollikka erishish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Абдулазиз Юлдашев

магистр

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общество, инновации, образовательные технологии, социальная работа, инновации в образовании, профессиональная компетентность, личностное мастерство, личностно-ориентированное образование, личное благополучие, саморазвитие, социально-этнические, социально-экономические, культурные потребности, человек и общество.

Аннотация: В статье рассматриваются нововведения в механизмах дополнительного образования, т. е. в дошкольном образовании, общем среднем образовании, академическом лицее, среднем специальном профессиональном и высшем образовании, высшем образовании. Учебные планы предметов, преподаваемых в дополнительном образовании, основаны на лучших традиции обучения и воспитания личности в инновационных технологиях социальной работы, в развитии или совершенствовании существующего механизма обеспечения устойчивого развития системы образовательных учреждений. Также приводятся выводы и рекомендации по достижению личного мастерства за счет формирования профессиональных компетенций при обучении и воспитании будущих специалистов.

KIRISH

Jahon ilm-fanida, innovatsiya va innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar jarayonida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Ta'lim muassasalar tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy

ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish, ta'lim muassasalar tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqish yoki mavjud mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirish hamda ijtimoiy ishning innovatsion texnologiyalarida shaxsni o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, bu jarayonda ta'lim muassasalar tizimining barcha sohalarini to'la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1,146-b], degan fikrlari mamlakatimizda yosh avlodga bo'lgan yuksak ishonchdan dalolat beradi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda ham hozirgi kunda "oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biri"[2] bo'lib, ushbu sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi natijasida jamiyatda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ijtimoiy talabning qondirilishiga, iqtidorli yoshlarning fuqarolik jamiyati sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda munosib o'rin egallashlariga, ijtimoiy ishning innovatsion texnologiyalarida, yoshlarning tenglik holatida o'z bilimlarini sinash imkoniyatlarini yaratishga yo'naltirilgan va zamonaviy innovatsion bilimlar mazmunida malakali kadrlar tayyorlash ishiga jalb etilishida ham namoyon bo'ladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ijtimoiy ish — bu kasbiy faoliyatning noyob turlaridan biri bo'lib, unda ko'pincha kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini ishning muvaffaqiyati va samaradorligini belgilaydi. Binobarin, ijtimoiy xodimni tayyorlash jarayonida u nafaqat kasbning asoslari va nozik tomonlarini o'rganadi, balki uni shaxs sifatida tarbiyalaydi, bo'lajak mutaxassis insonlar bilan ishlashda ko'rsatadigan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni innovatsion texnologiyalar orqali shakllantiradi.

Innovatsiya tushunchasi dastlab XX asrda xorijiy jamiyatshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida uchraydi va bir madaniyatga xos bo'lgan ba'zi elementlarning ikkinchi madaniyatga ta'siri, kirib kelishi ma'nosida ishlatilgan[3].

Bizningcha, innovatsiya – bu jamiyat tomonidan talab qilinadigan, keyinchalik amaliy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy yoki iqtisodiy qiymatni yaratgan amalga oshirilgan ijodiy g'oyadir.

Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san'at, “logos” – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etishidir. Ta'lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasi yuzaga kelishida biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” . Bunda nafaqat innovatsiyalarga ehtiyojning ortishi, balki globallashtirish sharoitida mafkuraviy, informatsion xurujlardan himoyalash, kadrlar korpusining yuksak ma'naviyatga ega bo'lishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida innovatsiya tushunchasi ijtimoiy ish fani doirasida inson faoliyatining muhim bo'lagi sifatida tadqiq etilmoqda. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida bo'lajak kadrlarni bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda bo'lajak mutaxassisning bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish olishi barchaga ayondir. Shu o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediyaviy vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat ega. Endilikda mutaxassislar “soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari, jamiyatda yetakchi o'rin egallashlari lozim.

Ta'lim muassasalari tizimi mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyilida, har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. “humanus” – insoniylik, “humanitas” – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar doirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlashtirish – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim muassasalar tizimida ijtimoiy ishning loyihalashtirishda har bir bo'lajak mutaxassis ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal

etishda uni jamiyat manfaatlarini bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda bo'lajak mutaxassis talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalari sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytganda, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi. Masalan o'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi. O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Ta'limning uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsning uning butun umri uchun asqatishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil ijtimoiy ish yo'nalishi o'qituvchisining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishini ifodalaydi.

Demokratik islohotlarning mazmuni va mohiyatini anglashda ta'limdagi innovatsiyalar, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda, ularning axloqiy va malakali mutaxassis sifatida, uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etayotganligi, oliy ta'limdagi innovatsion islohotlarning demokratik jarayonlar chuqurlashuvi bilan uyg'unligi, innovatsion ko'nikmalari yuksalishining ijtimoiy-ma'naviy jihatlari va ijtimoiy muammolarning yechimini topish ham mumkin bo'ladi.

Demak ijtimoiy ishdagi muhim innovatsion jarayon bu – ijtimoiy ish mutaxassislarini o'qitish jarayoni hisoblanadi. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyilida tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, talabalarning yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Mazkur tamoyilning mazmuni, ta'limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. Ta'lim jarayonida talabani o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyilida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu esa bo'lajak mutaxassis uchun muhim tamoyil hisoblanadi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsad va ijtimoiy g'oyaga asoslanib, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni mavjudligiga e'tibor qaratishni ham taqozo etadi.

Demak ta'lim muassasalari tizimida ijtimoiy ishning innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelib, ta'lim tizimining modernizatsiyasida davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi. Ta'lim amaliyotida yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Shu sababli har bir mutaxassis innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur. Yoshlarning innovatsion qobiliyati yuksalishida muhim omil rolini bajaradigan oliy ta'lim tizimi kelajak va hozirgi kun uchun zarur bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashi, jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi hamda jahon standartlari asosida faoliyat olib borishi lozim. Jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida oliy ta'limdagi bunday imkoniyat inson faoliyatining mas'uliyatli jabhasi, yoshlar tarbiyasiga, bo'lajak mutaxassislar, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berish vazifasini yuklaydi.

Shu o'rinda bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy barqarorligi masalasi muhim sanaladi. Shaxsiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydigan hissiy va ijtimoiy vakolatlar nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki kasbiy samaradorlikka ham ta'sir qiluvchi yo'nalishlar tizimida namoyon bo'ladi. Eng muhim shaxsiy xususiyatlar:

- mantiqiy yoki izchillik;
- muammoni baholash qobiliyati;
- o'z-o'zini rivojlantirish va nazorat qilish hissi.

Mantiqiylik yoki izchillik salomatlik va kuchning ustuvorligini anglatadi. Bu faoliyat va o'zaro munosabatlarga barqaror va barqaror yondashuvni saqlab qolish, stressni keltirib chiqaradigan spontan vaziyatlardan qochish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, mutaxassis birinchi navbatda salomatlik va kuchni saqlashga g'amxo'rlik qilishi kerak. Bu unga qiyin vaziyatda tegishli harakat yo'nalishini yanada samarali aniqlashga yordam beradi.

Muammoni baholash qobiliyati, qiyin vaziyatga tushib qolganda, uning ijobiy tomonlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Agar siz e'tibor qaratishingiz kerak bo'lgan ustuvorliklarni aniqlasangiz, bu muammoning stressli tomonlarini yo'q qilishga imkon beradi.

O'z-o'zini rivojlantirish bunga ishonchni anglatadi odam muammoni hal qilish uchun to'g'ri resurslarga ega. Bu o'z qobiliyatlarini ular yo'qligida rivojlantirish va muammolarni hal qilish uchun ulardan yetarli darajada foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Nazorat tuyg'usi amaliy ko'nikmalarni va kasbiy faoliyatda va hayotiy vaziyatlarda vaziyatga ta'sir qilish va o'zgartirish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, shaxsiy barqarorlik nafaqat shaxsiy farovonlik bilan bog'liq. Uning rivojlanishi professional darajada samarali bo'lish qobiliyatidadir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash zarurki, ijtimoiy ishni kelajakdagi o'z sa'y-harakatlarini qo'llash sohasi sifatida tanlagan yoshlar ushbu kasb haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari, ushbu faoliyat turi nafaqat ularning manfaatlariga mos keladimi yoki yo'qligini, balki ularning kasb manfaatlari va talablariga muvofiqligini ham hal qilishlari kerak. Noto'g'ri tanlovning salbiy oqibatlarini oldini oladigan ijtimoiy ishchi kasbini tanlashni ma'naviy jihatdan tartibga solish ham zarur bo'ladi. Kasb tanlash har qanday inson, ayniqsa, o'z kuchini qo'llash sohasini ilk bor tanlagan yosh shaxs hayotidagi jiddiy qadam bo'lgani uchun bunga ongli ravishda, chin ko'ngildan istab g'ayratli yondashish kerak.

Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri bu ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassisning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishdir.

Bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassislarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish muammolarini har tomonlama shakllantirish ushbu ijtimoiy hodisaning roli, ahamiyati va mohiyatini, shuningdek, uning ijtimoiy institutlar tuzilmasidagi o'rnini kontseptual jihatdan aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida talabalarni bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'qitish ularda yuqori darajada rivojlangan kasbiy-kommunikativ faoliyat uchun qator muhim shaxsiy fazilatlar shakllangan bo'lishini talab qiladi.

Bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassisida kasbiy faoliyat uchun muhim bo'lgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, shaxsiy barkamollikka erishish murakkab va uzoq davom etadigan intergatsiyali jarayon bo'lib, ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, aniqlashtirish hamda uni maxsus psixologik-pedagogik, ijtimoiy rivojlantirish uslubiyoti bilan to'ldirilishini talab qiladi.

Bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassisini tayyorlash jarayoni ta'lim va tarbiyada shaxs individual xususiyatlarini hisobga oluvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi asosida qurilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 146 b.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
3. Ермасов С. В., Ермасова Н. Б. Инновационный менеджмент: учебник для вузов. — Москва.: Высшее образование, 2007. — 505 с.
4. Юлбарсова, Х. А. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Восточно-европейский научный журнал*, (3-4 (67)), 36-40.
5. Юлбарсова, Х. А. (2021). ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Наука сегодня: вызовы и решения [Текст]: материалы меж.*, 61.
6. Yulbarsova, H. (2021). IMPLEMENTATION OF AN EFFECTIVE PROCESS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN A FUTURE TEACHER. *East European Scientific Journal*, 4(3 (67)), 36-40.
7. Yulbarsova, K. A. (2020). SCIENTIFIC RESEARCH METHOD AND MEANS IN SOCIAL WORK. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 206-213.
8. Юлбарсова, Х. А. (2020). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НЕОБХОДИМАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Интернаука*, 23(152 часть 2), 54.
9. Юлбарсова, Х. А. (2016). Формирование коммуникативной компетенции будущих учителей в процессе их подготовки к технологии эффективного общения. *Молодой ученый*, (20), 756-757.
10. Abdinazarovich, R. D., Abdullajonovna, Y. K., Ahadjanovich, Q. A., Bakhromovich, G. A., & Juraevna, N. N. (2020). THE ROLE OF SOCIAL SERVICE IN THE PROTECTION OF HUMAN INTERESTS. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1263-1267.
11. Юлбарсова, Х. А. (2021). ВОЛОНТЁРСТВО-ЭТО ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ. *Человек. Наука. Социум*, (1), 228-237.

12. Юлбарсова, Х. А. (2021). ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Наука сегодня: вызовы и решения [Текст]: материалы меж*, 61.

13. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.

14. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.

16. Юлбарсова, Х. А. (2015). Теоретическая сущность и структура коммуникативной компетентности и особенности ее формирования. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).